

Maktab O'Quvchilarida Qobiliyatni To'g'ri Aniqlash Hamda Amaliy Yordam Ko'rsatish


Bazarova Ruzigul¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarning qobiliyatini erta aniqlash hamda ularni to'g'ri yo'naltirish borasida tadqiqot olib boriladi. Shuningdek maqolada, o'qituvchi, ota-onalar hamda psixologlarga bu borada amaliy yordam va tavsiyalar berib o'tiladi. Xususan, qobiliyat va qiziqishning tafovutlari ham keng ko'lamda o'r ganiladi.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, qiziqish, iroda, motivatsiya, umumiy qobiliyat, maxsus qobiliyat, tafakkur, temperament, xarakter, iste'dod, layoqat, talant.

Qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatni muvaffaqiyatlama amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatdir. Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar, ya'ni bir odamning boshqa odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta'riflanadi. Psixologiya metodologik asosining ko'rsatishicha, qobiliyatlar imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu faoliyatdagi zaruriy mahorat darajasi hisoblanadi. Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jahhalari bo'lmish, bilim, ko'nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etar ekan, ularning bir-biriga bog'liqligini e'tirof etadi. Shuning uchun, qobiliyatlar faqat faoliyatda ro'yobga chiqadi. Lekin, aynan shu qobiliyatlar amalga oshirilishi ko'p uchramaydigan faoliyat ko'rinishlaridagina aks etadi, xolos.

Ushbu tadqiqotimda Ayzenkning savolnomasi asosida tuzilgan qobiliyatni aniqlash metodikasidan foydalandim. Bu tadqiqotimda Termiz shahridagi 10-maktabning 3-sinf va 10-sinf o'quvchilarini sinaluvchi bo'lib qatnashishdi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini hamda yuqori sinf o'quvchilarini tanlab olindi. Tadqiqotimning asosiy maqsadi yuqori sinf o'quvchilarini va boshlang'ich sinf o'quvchilarida qobiliyatning qay darajada ekanligi va qobiliyatning qaysi yo'nalishlarda ustun ekanligini aniqlash edi. Tadqiqotimning yana bir asosiy maqsadi ushbu bolalardagi qobiliyatning to'g'ri aniqlab olinganligi yoki aniqlab olinmaganligi, ularda qaysi qobiliyatning ustunligini o'r ganish




Shuningdek, tadqiqotimizda jins tafovuti ham bir xil natijani ko'rsatadi, ya'ni 20 ta o'g'il bola, 20 ta qiz bola tanlab olingan bo'lib, ya'ni har bir sinfdan 10 ta o'g'il bola hamda 10 ta qiz bola sinaluvchi sifatida tanlab olindi. Buni ham quyidagi diogramma orqali ko'rishingiz mumkin.

¹TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi





Shuningdek, tadqiqotimda yosh ko'rsatkichlarini ham diogrammaga qo'yib o'rgandim. Bunda shuni ko'rishimiz mumkinki, 3-sinf o'quvchilari 9 yoshni tashkil etishsada, ular orasida 2 ta 10 yosh hamda 10-sinf o'quvchilari 17 yoshni tashkil etsalarda, ular orasida 1 ta 16 yosh bola borligi aniqlandi. Buni ham quyidagi diogramma orqali ko'rishingiz mumkin.



Endi tadqiqotimizning asosiy qismiga o'tamiz. Metodikamiz bo'yicha 8 ta shkala mavjud bo'lib, ularni dastlab noparametrik va parametrik ekanligini aniqlab oldim. Parametrik va noparametrikka ajratganimizdan so'ng, parametrik hisoblagan 4 ta shkala bo'yicha mezonga qo'yib o'rgandim. Bunda, lingistik qobiliyat, suhbatdoshlik qobiliyati, ko'rish qobiliyati hamda tabiatsevarlik qobiliyati shkalasi parametrik ekanligi aniqlandi. Demak, biz endi parametrik mezonlarga xos bo'lган "student-t" mezonidan foydalangan holda tadqiqot olib bordim, ya'ni yuqoridagi parametrik bo'lган 4 ta shkalani guruhlarda taqqoslagan holda. Bu mezondan aynan ikkita tanlanmani solishtirish uchun foydalанилди. Olib borgan tadqiqotimning natijalarini quyidagi jadval orqali ko'rishingiz mumkin. Tadqiqotim bo'yicha lingistik qobiliyat bo'yicha 95 foizlik ishonch daraja bilan tafovut aniqlandi ($t=-1,88$, $p=0,05$). Lingistik qobiliyatning ustunligi 10 sinflarda kuzatildi, buni esa, ularning yuqori sinf o'quvchilarida fanlarning mukammalligi hamda ko'pligi, ko'proq badiiy kitob o'qishlari, nutqining deyarli rivojlanib bo'lganligi bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Tabiatsevarlik qobiliyati bo'yicha 99 foizlik ishonch daraja bilan tafovut aniqlandi ($t=-2,641$, $p=0,01$). Tabiatsevarlik qobiliyati shkalasi bo'yicha 3-sinfda ustun bo'lib, ularda tabiatsevarlikning ustunligini bolalarning ko'pincha qumlar bilan o'ynashi, yoki loylardan biror nimalar yasashi, yoki qiziqqan narsalarini chizishga harakat qilishlari, o'zlarini yoqtirgan multfilmlarni ko'rishlari, hayvonlarning rasmlarini chizishlari va ularni yasashlari bilan bog'lab tushuntirsak bo'ladi. Suhbatdoshlik shkalasi bo'yicha esa, hech qanday tafovut aniqlanmadidi. Biroq, suhbatdoshlik shkalasini biz o'rtacha qiymatga qarab qaysi sinfda qaysi qobiliyat yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Suhbatdoshlik qobiliyati bo'yicha 3-sinf va 10 sinf natijalari deyarli teng hisoblanib, birozgina 3-sinf o'quvchilarida ustunligini ko'rishimiz mumkin. Buni esa, bolalarning ko'pincha har bir narsaga qiziqib savol berishlari, ularning hozirgi yoshida ko'rib turgan yoki eshitgan narsalariga o'zgacha ishtyoq bilan bilishga intilishlarini bog'lab tushuntirish mumkin. Ko'rish qobiliyati shkalasi bo'yicha esa, o'rtacha qiymatda ham tafovut aniqlanmadidi, demak, ularda tasviriy san'atga, haykaltaroshlik va chizmachilikka birdek qiziqishlari, qobiliyatlarini borligi ma'lum bo'ldi.



Shkalalar nomi	Sinaluvchilarning guruhi	N	O'rtacha qiymat	t	P
Lingvistik qobiliyat	3-sinf	20	6,60	-1,88	0,047
	10-sinf	20	7,70		
Tabiatsevarlik qobiliyati	3-sinf	20	8,35	-2,641	0,012
	10-sinf	20	7,05		
Suhbatdoshlik qobiliyati	3-sinf	20	6,20	1,808	1,000
	10-sinf	20	5,90		
Ko'rish qobiliyati	3-sinf	20	8,78	2.897	1,981
	10-sinf	20	8,56		

Endi men nöparametrik shkalalarni tahlillash jarayoniga o'taman, bunda matematik qobiliyat, fikrlash qobiliyati, kinetik qobiliyat va musiqiy qobiliyat nöparametrik shkalalar hisoblanadi. Bunday matematik qobiliyat shkalasi va fikrlash qobiliyati shkalasi bo'yicha 95 foizlik ishonch daraja bilan tafovut aniqlandi ($U=-2,654$, $p=0,05$), ($U=3,748$, $p=0,05$). Matematik qobiliyat shkalasi bo'yicha 10-sinf o'quvchilarining ustunligini ko'rishimiz mumkin, buni esa ularning fanlari orasida algebra, geometriya fanlarining o'tilishi hamda murakkab formulalardan foydalanishi, ularning murakkab bo'lgan hosila jadvallari, integral jadvallari orqali misollar yechishini bog'lab tushuntirish mumkin. Shuningdek, fikrlash qobiliyati shkalasi bo'yicha ham 10-sinfning ustunligini ko'rishimiz mumkin. bunda esa, ular mustaqil fikrlay boshlagani, boshqalarga suyanmagan holda o'z ishlarini hal qila olishlari, darslarni o'zları o'zlashtira olishlari, boshqalarning ko'magisiz bemalol harakat qila olishlarini bog'lab tushuntirsak bo'ladi.

Qolgan kinetik qobiliyat shkalasi va musiqiy qobiliyat shkalasi bo'yicha hech qanday tafovut aniqlanmadni. Biroq, o'rtacha ranglash orqali ulardagi tafovutni aniqlash mumkin, ya'ni kenetik qobiliyat bo'yicha 10-sinfda ustunlik aniqlandi. Buni ulardagi rol ijro etish mahorati yoki bo'lmasa sport bilan shug'ullanish mahorati, mashqlar bajarishlari yaxshi rivojlanganligi bilan tushuntirish mumkin. Musiqiy qobiliyat shkalasi bo'yicha esa, 3-sinfda ustunlikni ko'rish mumkin. Bunga ularning fanida musiqa fanining borligi, ular deyarli haftada ikki-uch marta musiqa fanini o'tishlari, shu bilan birga, qo'shiq aytishga qiziqishlari, yana ularda musiqa tinglashga ishtiyoqining baland ekanliklarini bog'lab tushuntirsak bo'ladi.

Shkalalar nomi	Sinaluvchilarning guruhi	N	O'rtacha rang	U	p
Matematik qobiliyati	3-sinf	20	13,73	-2,654	0,024
	10-sinf	20	27,28		
	Jami	40			
Fikrlash qobiliyati	3-sinf	20	24,88	3,748	0,036
	10-sinf	20	16,13		
	Jami	40			
Kinetik qobiliyat	3-sinf	20	13,63	2,763	0,324
	10-sinf	20	16,38		
	Jami	40			
Musiqiy qobiliyat	3-sinf	20	23,25	2,647	0,544
	10-sinf	20	21,75		
	Jami	40			



Tadqiqot ishimning xulosasiga keladigan bo'lsak, tadqiqotimizda 3-sinf va 10-sinf o'quvchilarini respondent sifatida oldik. Bundan asosiy maqsad ulardagi qobiliyat qay darajada ekanligi, qobiliyatning aniq yo'nalganligi hamda qobiliyatni bolalikda qanday va keyinchalik qobiliyatning o'zgarish yoki o'zgarmasligini aniqlash edi. Shu bilan birga, 3-sinf o'quvchilarining ota-onasi bilan suhbat o'tkazganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, farzandlari avval, maktabgacha davrida boshqa narsalarga qiziqqan bo'lsa, keyinchalik esa, qiziqishlari umuman boshqa narsalarga yo'nalganliklarini ko'rshimiz mumkin. Demak, bolalikda qiziqish va qobiliyatni farqlash biroz qiyin ekanligi, ularda birorta faoliyatning aniq tanlanmaganligini, ularning faqat qobiliyat emas, balki qiziqish ekanliklarini ko'rshimiz mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ulug'bek Xamdam, Muvozanat – Toshkent sharq 2007
2. O.Sodiqova, S..Madaliyeva – Psixologiya Toshkent 2010
3. E.E.G'oziyev – Ontogenet psixologiyasi, Nazariy Eksperimental tahlili, Toshkent Monografiya 2010
4. M.Abdurahmonova, Ruhiy dunyo tasviri – O'zbekiston nashriyoti – Toshkent 1995
5. Ismoilovna A.Z, 2023, O'smirlarda agressiv xulq-atvor, Germany Modern scientific research achievements, innovations and development prospects.
6. Dilova N.F. 2017 O'quvchi shaxsini rivojlantirishda xamkorlik pedagogikasining o'rni, Zamonaviy ta'limga son.
7. G.X.Sharafuddinova – umumiyl psixologiya, Toshkent 2022
8. F.Abdurahmonov, Z.Abdurahmonova – Din psixologiyasi Toshkent 2011
9. The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in a child. Sh.Xudoyqulova, M.Saydaliyueva – Eurasian Scientific Herald 2003
10. O.Bo'riyev – O'zbek oilasining tarixi, Toshkent 2002
11. Abdurauf Fitrat – Oila, Toshkent 2002
12. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.
13. Ganiyeva, M. (2023). INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA, O'QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING, SHAKL, METOD VA VOSITALARI. Scienceweb academic papers collection.

